

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

2005-yil 23 - 29 may N:21 (66510)

Yurtboshimiz tashabbusi bilan o'tkazilayotgan yeh bosqichli ommaviy sport harakati bugun mamlakatimiz yoshlarini birdamlikka, totuvlikka va do'stlikka chorlamoqda. Allajachon an'anaviy tus olib ulgurgan «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport musobaqlari Alpomishu Barchinoydek olovqab sportchi yoshlarimizni elga, dunyoga tanitishga ulgurdi. Sportga mehr qo'ygan barcha yoshlarimizning maqsad-maslagi yagona - u ham bo'lsa yurtga sodiq farzand bo'lish, uning sha'ni, sharafini himoya qilishdir.

BARKAMOLLIK BAYRAMI



24-29-may kunlari Toshkent viloyatining Chirchiq shahrida ana shunday yoshlarimiz ishtirokida yana bir ajoyib bayram - «Barkamol avlod» sport o'yinlari musobaqasi boshlanadi. Ushbu sport bayramida sizning aka va opalaringiz, ya'ni litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari qatnashadilar. Ular sportning basketbol, voleybol, kurash, belbog'i kurash, yengil atletika, futbol, tennis, shaxmat, qo'l to'pi, boks, badiiy gimnastika, suzish, stol tennis kabi o'n besh turi bo'yicha o'zaro kuch sinashadilar. Bellashuvlarda

nafaqat sportchi yoshlar, balki Olimpiya zahiralari kollejining mohir sportchi yoshlar ham ilk bor ishtirok etadilar.

Shunday qilib, barcha yosh sport ishqibozlarini zumrad shahar - CHIRCHIQQA taklif etamiz.

Xurshida BOYMIRZAYEVA,

Mirzo Ulug'bek tumanidagi 248-maktabning 11-sinf o'quvchisi.



Men shifokor va o'qituvchilar sulolasini farzandiman. Bobom Tursun Sharipov o'z vaqtida G'ijduvoni obod qilish uchun juda ko'p mehnat qilganlar. Hozirda bobom barpo etgan shahar istirohat bog'i u kishining nomlari bilan ataladi. Bobom bizga doimo, bolalarim, imyonlige'tiqodli bo'linglar, vataningiz ravnaqi uchun mehnatingizni, tinchligi va

o'zlashtira olmagan o'quvchilarni darslar nomigagina o'tiladigan hunar bilim yurtlariga jo'natib yuborish bilan qo'rqtishar ekan. Hozir esa istiqlolimiz sharofati bilan barpo etilgan minglab kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarda tahsil olishni kim ham xohlamaydi deysiz?! Sport bilan shug'ullanishimiz uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni aytmasizmi... «Bolalar sportini rivojlantirish»ga oid Davlat qarorlari qani, qaysi yurtda chiqyapti? Shunday ekan, biz yoshlar ham bunday g'amxo'rliklarga a'lo o'qishimiz, kuchli bilim va iqtidorimiz bilan javob berishimiz lozim, deb o'layman. Buning uchun esa yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lmog'i darkor.

Buzg'unchilar yo'qolsin!

JONDAN AZIZ HAR BIR TUPROG'ING

osoyishtaligi uchun lozim bo'lsa, joningizni ham ayamang. Shunda xalqingizning ardoqli farzandi bo'lasiz va siz bilan farzandlarining ham faxrlanib yashashadi, deya nasihat qilardilar. O'gitlarining nechog'li to'g'riligiga, unga o'zlarini ham amal qilib yashaganliklariga ular bilan faxrlanib yurgan ayni damlarim yana bir bor amin bo'lyapman.

Bobom nasihatlarini yodda tutgan holda o'rtta maktabni bitirib, Tong'in xavfsizligi olyi texnik maktabiga o'qishga kirdim. U yerda rahbarlarimiz Sadriddin Zayniyev, Abdurahmon Qunduzovlardan harbiy bilimlars olsak, sport murabbiylarimiz Murod Hudoyqulov, Ilduz Boriyevlar boshchiligidagi sport bilan ham mutazam shug'ullanib, chiniqib, kuchimizga kuch qo'shib boryapmiz.

Hozirda biz yoshlarning bilim olishimiz, hunar o'rganishimiz, salomatligimizni mustahkamlab, miriqib dam olishimiz uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ota-onamning aytishlaricha, avvallari chet ellarda tahsil olish u yoqda tursin, hatto borib kelishni xayollariga ham keltirolmagan ekanlar. O'rtta maktab dasturini yaxshi

Kuni kecha Andijon viloyatida sodir bo'lgan xunrezliklar, ko'ngilsiz voqealarni eshitib, juda qayg'urdik. Aniqlanishicha, terrorchilik harakatlarini sodir etgan kimsalarning aksariyati chet el fuqarolari ekanlar. O'z yurti, Vatanining qadriga yetmagan bunday manqurtlar o'zga yurtning qadrini qaydan ham bilsin! Lekin ayrim ongi zaharlangan yoshlarimizning ular safiga bilib-bilmay qo'shilib qolayotgani bizni qattiq tashvishlantiryapti. Vatani, ona xalqi sha'ni uchun hatto jonini ham fido qilgan Cho'pon, Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi ajodolarimizning avlodlari deb kim aytadi ularni?..

Ishonamanki, bunday yoshlarimiz juda ozchilikni tashkil qiladi va o'z xatolarini vaqtida anglab yetadilar. Sog'gom fikrlaydigan, yurtimiz mustaqilligini qo'riqlaydigan biz yoshlar buzg'unchilar harakatini qoralaymiz. Aql-idrok, imon-e'tiqodimiz bilan yurtimiz tinchligini tiklaymiz!

Jahongir G'AFUROV,
Toshkent shahridagi Oliy o't o'chirish harbiy
maktabining 2 - bosqich talabasi.

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,

«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

MUSTAQIL YURT BOLALARI - VATANIMIZ POSBONLARI

- Buvim ertaklarida
Bo'lgan ekan bir podshoh.
Har kecha tushlarimda,
Shohga aylangum nogoh.

- Ulg'aysam podshoh bo'lay,
Maylimi, oyijonim?
Adolatli yurt so'ray,
Vatan-chun tikay jonim!

- Olim bo'l, bo'l shifokor,
Mashaqqatdir yurt so'rash.
Kattalar fikri darkor,
Bobo-buvung-la kengash.

- So'rsam bobom va buvum
Ikkovlari bir kulib:
- Niyating ulug', o'g'lim,-
Derlar shodlikka to'lib.

- Ot minib chiqay shikor,
Qo'riqlayin Vatanni.
Tashvishlanmang, Siz zinhor,
Bosmayman hech tikanni.

Endigina to'rt bahor,
Ko'rgan jajji Azamat.
Ana shunday har nahor,
Qiladi ezgu niyat...

GULYUZ



TERROR NOMI O'CHSIN!

Farzandin dog'ida kuygan onalar,
Xaroba, kultepa bo'lgan xonalar,
Gunohi ne edi murg'ak bolalar,
Terrorchi degan nom o'chsin dunyoda!

O'z-o'zin portlatar kim nimani deb,
Millatin qaqshatar nonu tuzin yeb.
Yana Olloh nomin aytar ko'rib ep,
Terrorchi degan nom o'chsin dunyoda!

Olami alamdir gunoh qilganning,
O'zgalar dilin qon, bag'rin tilganning.
Birovning g'amini huzur bilganning...
Terrorchi degan nom o'chsin dunyoda!

Orzigul SADRIDDINOVA,
Farg'ona viloyati, Uchko'rik tumanidagi
29-umumta'lim maktabining 8- sinf o'quvchisi.



Kuni kecha yo'lingiz tushib, Bo'stonliq tumanida joylashgan so'lim «Semurg» oromgohida bo'lqaniningizda, yozgi ta'il kunlari kelmasidanoq bolajonlar dam olishni boshlab yuborishibdi-da, degan xayolga borardingiz. Xulosa chiqarishga shoshilmang, 10-12- may kunlari bu so'lim



AMOLOT

haqiqiy do'sti va ko'makchisi ekanligini tasvirlashga astoydil harakat qildilar.

Anjumanning ikkinchi

kuni Respublika «Kamolot» YoIH Markaziy Kengashi raisi Botir Ubaydullayev so'zga chiqib, bizni samimiy qutladilar, o'qish va ishlarimizda omadlar tiladilar.

SEMURG»DAGI AJIB ANJUMAN

go'shaga yig'ilgan tengdoshlaringiz dam olishga emas, «Kamalak» bolalar tashkilotining navbatdagi IV anjumaniga yig'ilishdi. Anjumanni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad – avvalo viloyatda joylashgan 16 ta tuman va 5 ta shahardan kelgan «Kamalak» sardorlarini bir-birlari bilan o'zaro do'stlaشتirish edi.

Men ushbu anjumanda ilk bor



ishtirok etayotganidanmi, avvaliga biroz tortindim. Ammo tuman sardorlari bilan tezda tanishib, do'stlaشتib ketdik. Oromgohda bizga Bo'stonliq tumanı «Kamalak» sardorlari peshvoz chiqdilar. Tushlikdan so'ng o'z guruuhlarimiz bilan anjumanning tantanali ochilish marosimiga tayyorgarlikni boshlab yubordik. Har to'rtala guruh a'zolari ham berilgan topshiriqlarni a'lo darajada bajarishga, tayyorlagan devoriy gazetalarida «Kamalak»ning tom ma'noda bolalarning

Tadbirning tantanali qismi Vatanimiz madhiyasi bilan boshlandi. Shu kuni «Sardor - 2005» ko'rik-tanlovi ham bo'lib o'tdi. Unda o'nlab tuman va shahar sardorlari «Yilning eng faol sardori», «eng salohiyatl sardor», «eng namunali sardor», «eng tashkilotchi sardor», «yil sardori» kabi nominatsiyalar bo'yicha bellashdilar.

Tashkiliy qo'mita tomonidan Olmaliq shahri, Chinoz, Bo'stonliq, Ohangaron shahri va tumanı, Qibray tuman sardorlarining faoliyatlarini yuqori baholandi.

Anjumanning tantanali yopilish marosimida ko'plab iqtidorli o'quvchilarga va anjumanda faol ishtirok etgan sardorlarga «Kamolot»ning sovg'alari va «Faxriy yorliq»lari topshirildi. Anjumanda nafaqat sardorlar, balki guruh rahbarlari, tuman «Kamalak» bolalar yetakchilari ham munosib taqdirlandilar. Respublika «Kamalak» bolalar tashkiloti sardorlari kengashining tuman sardorlari bilan o'tkazgan trening menda katta taassurot qoldirdi. Uni boshqargan Respublika Sardorlar kengashi raisi Setora Nazarovadan o'zimizni qiziqtirgan ko'plab savollarga javoblar oldik.

Anjuman davomida «Kamolot» YoIH homiyligida ish boshlagan «Kamalak»ning bugungi kunda bolalarning haqiqiy suyanchi va tayanchiga aylanganiga yana bir bor guvoh bo'ldik. Sardorlardagi abjirlilik, zukkolik, tezkorlik va faollikni ko'rib, yoshlarimiz buyuk ajodolariga munosib vorislar bo'lishga astoydil bel bog'lanliklariga amin bo'ldik.

Sadoqatoy DADAYEVA,

Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 1-o'rta maktabning 10-«A» sinf o'quvchisi.

«MEN BEHZOD BO'LAMAN...»



O'tgan yili shu pallada qadrond bog'chamiz bilan xayrlashib, 1-sinfga qadam qo'ygandik. Mana, bir yil ham bir zumda o'tib ketdi. Hademay so'nggi qo'ng'iroy ovozi bizni yozgi ta'tilga kuzatadi.

Men bir yil davomida ko'pnarsalarni o'rganib oldim. Ustozimiz Muhayyo opa bizlarga yozishni, sanashni, harflarni bir-biriga qo'shib o'qishni o'rgatdilar. Endi ta'tilda do'stlarim Saidburhon, Xurshid, Hasan va Husan bilan mazza qilib ertak kitoblarni o'qiyimiz. Yaqinda qadrondimiz «Alifbe» kitobi bilan ham xayrlashdik.

Meng a bog'chadan ko'ra ko'proq maktab




yoqdi. Nimaga, deysizmi? Maktabda uxlatalishmas ekan-da...

Yana ustozimizdan rasm chizishni ham o'rganib oldim. Ta'il kunlari o'zim o'qigan ertak qahramonlarining, go'zal Parkentimiz manzaralarining rasmlarini chizmoqchiman. Kelajakda Kamoliddin Behzoddek mashhur

rassom bo'laman, desam ayrim o'rtoqlarim Behzod kim, deb kulishadi, Behzod degan bolalarni eslashib. Men ularga vatandoshimiz, buyuk rassom haqida bilganlarimni gapirib beraman. Niyatimga yetishish uchun esa hozirdanoq mashq qilib, mo'yalamim uchini charxlab borishim kerakligini ham yaxshi bilaman.

Azizbek YO'LDOSHEV,

Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 1-o'rta maktabning 1-sinf o'quvchisi.



Xayr, qadrondon maktab!

QO'NG'IROQNING
SO'NGGI
JARANGI

Bugun kimlar juda ham shodon,
Yana bir sinf ulg'aydim, deya.
Kimning yoshi ko'zlarda pinhon,
Maktab yakun bo'lgan soniya...
Parvozga shay turgan qaldirg'och,
Qo'nay deydi har bir burchakka.
Maktab – ona quchog'ingni och,
Shu tafting jo bo'lsin yurakka.
Qo'ng'iroy kuyida ham dard bor, ham shavq,
Qaldirg'och yig'laydi yodlab olay deb.
Yillar o'tgach esa har soat, har vaqt,
May oyi o'quvchi bo'lib qolay, deb.
Kulguga sababchi sevgi xatlari,
Sho'xliklar qalblarda uyg'otar sog'inch.
Ustozlar o'git va nasihatları,
Dilga titroq solar, shirin bir o'kinch.
Yillar o'taverar, o'sar o'quvchi,
Birovin o'rnini boshqasi olar.
Ilk sevgi, maktabni yodga soluvchi,
Qo'ng'iroy qalblarda jaranglab qolar.



Gulnoza KARIMOVA,
Ijtimoiy yo'nalişdag'i respublika maxsus
gimnaziyasining 8-«A» sinf o'quvchisi.

QUYOSHGA TIK QARAB...

Har qanday hashamatli imoratlar ham mayda g'ishtlardan barpo bo'ladi. Bizning nigohimiz hamisha ulkan binolarga qaratiladiyu, mayda-chuydalarga e'tibor bermaymiz. Holbuki, har qandy iste'dod ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bunga qadar, qanchadan-qancha kichik qadamlar tashlanib, bir qancha pog'onalarini bosib o'tishga to'g'ri keladi. Bu borada Ijtimoiy fanlar yo'nalişdag'i respublika maxsus gimnaziyasida Farhod Fayziyev rahbarlik qilayotgan drama to'garagi a'zolari, ya'ni 7-«B» sinf o'quvchilaridan Baxtiyor Abdujabborov, Dilorom Hamroyeva, Nargiza Majidova, Aziz Abdullayev, Shohista Sattorova, Sarvar Karimov va boshqalar ishtirokidagi ikki pardali «Ikkinci aprel» deb nomlangan sahna asari fikrimga dalil bo'la oladi. Ushbu sahna asarining birinchi qismi birinchi aprel – hazil kuniga bag'ishlandi. Voqealar rivoji ham shu asosda quriladi. Ya'ni, bu kun har qancha yolg'on gapirish, hazillashish mumkin. Biroq, bolalarning bu o'yinlaridan o'tchiqadi. Keyin ular bundan saboq chiqarib, 2-aprel kunini «haqiqat kuni» deb e'lon qiladilar. Qanday vaziyatda bo'lmash, faqat to'g'ri so'zlashga ahd qiladilar. Yillar davomida yolg'on qon-qoniga singib ketgan Inson bolalarining g'aroyib tabiatni to'g'rilik, haqiqat so'zlarini andishasizlik, surbetlik, sotqinlik kabi atamalar bilan almashtirib yuboradi. Bu holat ona va bola, o'qituvchi va o'quvchi, do'stlarining o'zaro munosabatlarda turli ziddiyatlarni, tushumovchiliklarni keltirib chiqaradi. Holbuki, hamma xiyonat-u ko'z yoshlarning doyasi – yolg'on. Mana, shu yolg'on lo'li ayol bilan o'quvchining muloqoti tasvirlangan lavhada yaqqol ko'zga tashlanadi. Bolalar ijrochilik mahoratlarini namoyish etib, tomoshabinlarga quvnoq kayfiyat ulashishadi.

«Kulish – bu zakovat, iste'dod. Odam kulganda, kimligi darhol ko'rindi. Zero, kulgu kishidan samimiyatni talab qiladi», degan edi ulug' rus yozuvchisi Dostoyevskiy.

Ushbu sahna ko'rinishida kechayotgan voqealar hayotiy bo'lgani uchunmi, bolalar voqealar rivojida o'zlarini erkin tutishadi. Chunki bu holatlar ularga yaxshi tanish.

Iqbol QO'SHSHAYEVA.

O'quv yili tugab, ta'til kunlari boshlanishi arafasida deyarli barcha maktablarda «maktab ta'miri uchun» pul yig'iladi. Barcha ota-onalar qatori meni ham «Hukumatimiz maktablar uchun katta-katta mablag'lar ajratса ham nega endi pul yig'ishlar to'xtamayapti?», degan savol o'ylinanirdi. Shu savol bilan bolalarimizga murojaat qilganimda: «Men qayerdan bilaman. O'qituvchimiz, remonta pul olib keldinglarmi, deya darsni boshlashdan avval birma-bir so'rayveradilar-ku... Sinfimizni o'zimiz remont qilishimiz kerak ekan. «Sinf fondi»ni to'lamaganlar hali unga ham olib kelishlari kerak» degan javoblarni eshitaman.

Gaplarim umumi, isbotsiz bo'imasligi uchun Shayxontohur tumanidagi 40-maktabning 8-sinf o'quvchisi Nazokat Ahmedova, Akmal Ikromov tumanidagi 287-maktabning 10-sinfo'quvchisi Gulshan Umrzoqova, Toshkent tumanidagi 5-maktab o'quvchisi Akbar Siddiqov, Yunusobod tumanidagi 265-maktabning 7-sinf o'quvchisi Davronbek To'laganov kabi o'quvchilar bilan qilgan savol-javobimizni diqqatingizga havola qilmoqchiman:

Muxbir: - *Maktabingizda ta'mir uchun necha so'mdan yig'ilayapti?*

Nazokat: - Uch ming so'mdan yig'ishayapti. «Maktab fondi»i uchun esa har oyda 200 so'mdan yig'ib olishadi.

Muxbir: - *Bu qanday fond ekan?*

Nazokat: - Fondga yig'ilgan pullarni maktabda bo'ladiqan nosozliklarni tuzatishga, oynalar singanda yangisini olishga, doskalarini yangilashga, bo'yoqlar sotib olishga ishlatsizharkan.

Muxbir: - Qish oylarida haqiqatdan ham ta'mirdan chiqqan, issiq sinf xonalarda o'qiysizlarmi?

Davronbek: - Bir xil paytlarda muzdek bo'ladi. Xonaga kira olmaymiz. O'shanda paltolarimizni kiyib o'tiramiz. Komissiya keladigan bo'lib qolsa, sovuq qotsak ham yechinib o'tiramiz. Bo'limasa urishib berishadi.

Muxbir: - Mana, shuncha paytdan beri «fond» uchun pul to'lab kelyapmiz-ku, sinf xonalrimiz nega isimayapti, deb so'ramaganmisizlar?

Nazokat: - Albatta so'raganmiz. O'qituvchilarimiz: «Men nima ham qila olardim, oddiy bir o'qituvchi bo'lsam. Qo'limdan hech narsa kelmaydi», deyishadi.

Muxbir: - Maktab rahbari bilan bu haqda gaplashganimisizlar?

Bolalar: - Yo'q hali.

Muxbir: - Nega endi, axir ular aytgan pulni har yili berayotgan ekansizlar-ku?

Qizcha: - «Oynaga ketayapti. Bo'yoq sotib olishimiz kerak. Juda

qimmat turadi», deyishadi. Balki shundaydir, deb o'ylaymiz...

O'quvchilar men bilan «ko'ngillarini ochib, samimi suhbatlashishdi-yu, lekin suhbat so'ngida: «Bizga gap tegib qoladi, yozib nima qilasiz?», degan xavotirlari ham bo'ldi. Men esa maktabga pul olib kelishmagani va aynan shu masalada norozilik bildirishgani uchun hech kimning ularga tazyiq o'tkazishga haqqi yo'qligini tushuntirdim.

Biz ota-onalar majlislarida ham,

uchun alohida yig'ib turishadi.

Muxbir: - *Har oyda «sinf fondi» yig'ilsa, yana uch mingdan ta'mirga nega berish kerakligini so'ramadingizmi?*

Ona: - Bilmadim, «Och qornim, tinch qulog'im» deganlaridek... Bolalarimiz o'sha yerda o'qiyaptimi, demak, berishimiz kerak. Aks holda kelishmovchiliklar bo'lishi mumkin.

Shokirjon Siddiqov, Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumanidan:

MAKTABLARDA NEGA PUL YIG'ILMOQDA?

bolalarimiz orqali ham maktabga pul so'rattirib yuborishlariga ko'nikib qolgandekmiz.

Lekin yana bir holat meni ajablantiradi. 4-sinfni, ya'ni boshlang'ichni tugallayotgan sinf o'quvchilaridan ham «ta'mir uchun» pul yig'iladi. Yangi o'quv yilida 5-sinfga chiqqan bu o'quvchilar o'zlarini ta'mirlagan sinf xonada o'qishmaydi. 1-sinflarga o'rinn berishadi. Bu tabiiy jarayon. Ammo yil yakunida ta'mir uchun pul yiqqan 5-sinf o'quvchilarini ham ta'mirlangan sinf xonasida o'qishadimi? Qizim 5-sinfga o'tgandagi tushkun holatini hali hamon eslayman. «Yangi sinf rahbarimizning xonasi eski ekan. Oyi, endi yana remonta pul yig'ishimiz kerak ekan» degandi o'shanda.

O'shanda men o'qituvchilaridan bu haqda so'ranganimda: «1-sinflarni doimo ta'mirlangan xonalarga olib kiramiz. Sizni bolangiz ham maktabga chiqqanida yarqiragan xonada o'tirgan-ku», degan javobni olgandim. Ammo maktab rahbariyati farzandini maktabga berayotgan har bir ota-onadan bir banka bo'yoqmi, ohakmi va yana boshqa ta'mir uchun

zaruriy ashyolar olib kelishlarini so'rashgani ham sir emasku va bu so'rovlar mana yillar davomida go'yo «an'anaga aylanib» qolgandek. Ayrim yurtdoshlarimizning ham bu boradagi fikrlari bilan qiziqdim:

Muxbir: - Farzandlaringiz maktablarga borishsa kerak. Ta'mir uchun necha so'mdan berdinglar yoki endi berasizlarmi?

Yulduz Karimova: - Ikkita farzandim Yunusobod tumanidagi 51-maktabda o'qishadi. Boshlang'ich sinflarda har biriga uch ming so'mdan berardim. Har biriga bir yarim mingdan bera qolay, desam ko'nishmadi. Yana har oyda «sinf fondi»

Ukalarim Uchqo'rg'ondag'i 5-o'rta maktabda 1-3-sinflarda o'qidi. Ular ta'mir uchun bir yarim ming so'mdan yig'ishayapti. Shu pulni beridik.

Muxbir: - Bu o'quv yildan maktablarni rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi, kattagina mablag'lar ajratildi-ku. Nega yana pul so'rashayotgani bilan qiziqmadingizmi?

Shokirjon: - So'radik. «Qarorning ijrosi amalga oshib, ta'mir uchun jihozlar yetib kelguncha baribir sinf xonalarni o'zimiz ta'mirlashimiz kerak», degan javobni oldik.

Rohila Yusupova, to'rt nafar farzandning onasi:

- Uchta bolam S.Rahimov tumanidagi 133-maktabda o'qishadi. Maktab ta'miri

o'rganilganlar natijasida maktablarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, binolarni qayta qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash masalalari, o'quv laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, o'quv darsliklarini qayta ko'rib chiqish, dasturlarni takomillashtirish masalalari-yu o'qituvchilarini malakasini oshirish, ularni ijtimoiy himoyalash hamda bolalar sportini rivojlantirish masalalari ko'rigan. Hukumatimizning 321-qarori bilan

manziliy dastur qabul qilingan va hozir shu asosda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hukumatimiz tomonidan buning uchun yetarli mablag'lar ajratilgan.

Agarda maktablarda ota-onalardan noqonuniy ravishda moliyaviy mablag'larni yig'ish to'g'risida biror bir xabarlar bo'lsa, bularni hammasiga chek qo'yish uchun o'tgan yili Xalq ta'limi vazirligining 255-sonli buyrug'i qabul qilingan. Bunga binoan «Ta'lim muassasalarida o'quvchilardan moliyaviy mablag'larni yig'ish, «maktab» yoki «sinf fondi»ga deb pul to'plash qat'ian ma'n etiladi. Vazirligimiz hamda hududi boshqarmalar bunga yo'l qo'ygan ta'lim muassasalarini rahbarlariga nisbatan ma'muriy chora ko'rmoqda. Shu bilan bir qatorda maktablarni moddiy negizini mustahkamlashni ta'minlashda jamoatchilikning rolini kuchaytirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan maktablarda vasiylik va homiylik kengashlarini tuzish to'g'risida tavsiyalar berilgan. Hozir shular tuzilmoqda. Ularning vazifalari - maktablarda homiyalar, tashkilotlar yordamlarini to'g'ri ishlatalishini nazorat qilish, hisobga olish, kuzatishdir».

Katta istaklarimidan biri - ota-onalarimizning «Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy Davlat dasturi» da faol qatnashishlarini ko'rishdir. Umuman, maktablarni hayotiga beparvo bo'limasliklarini iltimos qilardim. Shundagina dasturda belgilangan vazifalar bajarila borib, farzandlarimiz oldida ham yuzimiz yorug' bo'lardi.

Saidaxon ZOKIROVA, jurnalist.



uchun har bir bolamga uch mingdan to'qqiz ming to'lashim kerak. Salgina kamaytirishmadi ham. Bolalarim oldida ham noqulay. Maosh olsak, ajratishga harakat qilamiz endi. Iloj qancha?..

Fikrim bir taraflama bo'lib qolmasligi uchun shu masala xususida Xalq ta'limi vazirligi ta'lim muassasalarini faoliyatini tashkil etish Bosh boshqarmasi boshlig'i Ro'ziqulov Nomoz Arziqulovich izohlarini keltiraman:

«Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturida respublikamizdagi barcha maktablarning bugungi kundagi ahvoli o'rganilgan, pasportlashtirilgan. Shu

HAMMASI

RAHBARGA

BOG'LIQ

EKAN

Biz Shayxontohur tumanidagi 186-maktabda o'qiyimiz. Avvallari maktabimizdagi shart-sharoitlar yetarli emasdi. Oshxonamizda sichqon va kalamushlar g'ujg'on o'ynardi. Ayniqsa, deraza oynalari sinib, qarovsiz holda yotadigan hojatxonamizni aytmaysizmi? Qishning sovuq kunlarida bu yerga kirib bo'limasi. Kutubxonamizni-ku, gapirmay qo'ya qolay...

Shakarxon opa Husanova maktabimizga rahbar bo'lib keldilar-u, hammasi tubdan o'zgardi. Bilim maskanimiz to'liq ta'mirlandi. Sinf

xonalrimiz kompyuterlar bilan jihozlandi. Ayniqsa, shirin-shirin, mazali taomlar tayyorlanadigan ozoda va sarishta oshxonamizni aytmaysizmi, ko'rsangiz havasingiz kelib ketadi. Har bir fandan to'garaklar tashkil qilindi. O'z navbatida biz ham a'lo baholarga o'qib, ko'rik-tanlovlar va fan olimpiadalarida faol qatnashib, maktabimiz sharafini himoya qilib kelyapmiz. 9-sinf o'quvchisi Sevara Majidova fransuz tilidan, 10-sinf o'quvchisi Setora Malikova esa jismoni tarbiya fani bo'yicha fan olimpiadalarida muvaffaqiyatlari qatnashib, g'oliblikni qo'lga kirishitdi.

Taniqli jurnalist Sherzod Qudratxo'jayev, «Kross» gazetasining bosh muharriri Muzaffar Irisbo耶ev maktabimizning sobiq bitiruvchilari bo'lishgani bilan faxrlanamiz.

To'g'risi, avvallari maktabga borgimiz kelmasdi. Hozir esa havas qilsa arzirli bilim maskanimiz tomon oshiqamiz. Buning uchun esa maktabimiz rahbaridan behad minnatdormiz.

Gulira'no MUSAYEVA, Toshkentdag'i 186-maktab o'quvchisi.



sportchi qizlarniki kabi epchil, chaqqon...

— To'g'ri topdingiz. Maktabimiz qoshidagi karate to'garagi a'zosiman. Bu mashg'ulotim birinchidan salomatligim uchun foydali bo'lsa, ikkinchidan zarur

— Biz eski maktabda o'qiyimiz. Sharotlari etarli emas, qishda sinf xonalarimiz juda sohib ketadi. Sport zalimiz kichkina. To'garaklar yo'q hisobi. Sehrgardan biz uchun qurilayotgan maktab binosini tezroq bitirib berishini so'rangan

uyg'ondi...

Mittigina qalbidagi havas havasligicha qolib ketmasligiga tilakdosh bo'lib, dugonam bilan xayrashdim.

*Suhbatdosh
Nargiza AKBAR qizi.*


KÜF-SÜF, MÄKTÄBIMIZ YÄNGI BO'LIB QÖLSIN...

bo'lib qolganda o'zimni himoya qilishimga asqotadi, deb o'yayman.

— *Qishlog'ingiz nomi «Shampan» ekan. Tarixini bilasizmi?*

— Bilishga bilaman-u, lekin u siz o'ylaganchalik qiziqarli emas. Qishlog'imizda shampan ishlab chiqariladigan zavod bor. Nomi ham shundan kelib chiqqan.

— *Kutilmaganda yo'lingiz dan sehregar chiqib qolsa, nimalarni so'r a g a n bo'lardingiz?*



bo'lardim. Zora, yangi o'quv yilini yangi maktabda boshlasak.

Yana, mahallamizda mo'jazgina sport maydonchasi qurib berishini so'rangan bo'lardim. Shuningdek, ota-onamga uzoq umr, yurtimizga tinchlik ham so'rardim...

— *Darsdan bo'sh vaqtlarin qanday o'tadi?*


— Qishloq bolalarining bo'sh vaqtleri juda kam bo'ladi. Maktabdan kelamiz-u, singlim Lobar ikkimiz qo'y-qo'zilarimizni haydar, dalaga otlanamiz. Yam-yashil dala-bog'larga boqib, qishlog'imiz go'zalligidan zavqlanaman. Ilhomim jo'shib, ona, Vatan haqida she'lar qoralayman.

— *Qiz bolalar bajaradigan yumushlarni qachon o'rganasiz?*

— Oyijonimga eng yaqin yordamchi bo'lib, ovqat pishirishni, tikish-bichishlarni ham o'rganib olyapman.

— *Orzularingiz haqida ham so'zlab bering.*

— Avvalambor qalbimda she'riyatga havas uyg'otgan dadam Sunnatilla akadan behad minnadtorman. Dadamning ajoyib bir odati bor: bizga kitob sovg'a qilishni yaxshi ko'radilar. Ular keltirgan Po'lat Mo'min, Mahmud Toirovning she'riy kitoblarini qayta-qayta o'qib, qalbimda xuddi ulardek ijodkor bo'lishga havas



QISHLOG'IM

*Qishlog'imda bor mening,
Tog'u dala, chamanzor.
Shifobaxsh havosi-yu
Hamma tomon maysazor.*

*Ko'zim ko'rsa quvonar,
Qip-qizil lolalarni.
Chopib yurgan sho'x-shodon,
O'g'il-qiz bolalarni.*

*Qishlog'im jamolidan,
Babra olib yashnayman.
Uning so'lim bag'rida,
Erkalanib yashayman.*

Lola TURDIBOYEVA.

Tengdoshlarin ijodi

ONA MO'FABBAR

*Siz tufayli dunyonı,
Ko'rib ko'zim quvondi.
Xafa bo'lsam kuldirib,
Bag'ri dilingiz qondi.
O'rgatasiz odobni,
Olqish olgin deb eldan.
A'lo o'qib besh olsam,
Xursand bo'lasiz dildan.
Ko'rmayin hech qachon yosh,
Sizing ko'zlarinigizda.
Onajonim gul unar,
Bosgan izlaringizda.*



*Avazxon VALIXONOV,
Sobir Rahimov tumanidagi
234-maktabning 6-«A» sinfi o'quvchisi.*

KITOB QADRI

*Kitobdir mening jonim,
Kitob to'la javonim.
Uni toza saqlayman,
Bergan so'zim oqlayman.
Bo'yamayman, chizmayman,
Hatto dog' tekkizmayman.
Ko'rimmasin ko'ziga,
Chizmasin deb yuziga,
Ukamdan yashiraman,
Qadrini oshiraman.*



*Umida DAVUROVA,
Samarkand viloyati, Narpay tumani,
Oqoltin jamaoa xo'jaligidagi
7-o'rta maktabning 9-«A» sinfi o'quvchisi.*

ORIJILIKLAR HAYRATI

Inson ulg'ayib, biror kasbning boshini tutishida oilaviy muhitning ham katta ta'siri bo'larkan. Buni ustozimiz Gulnora opa Boltayeva misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Ustoz haqida so'z

ikkilanmay shu kasbni tanlashgan. Mana 25 yillardiki, bu sharafli va mas'uliyatli kasbni ardoqlab, o'quvchilarga fransuz tilidan saboq berib kelyaptilar. Qanchadan-qancha o'quvchilari tuman, viloyat, hatto respublika fan olimpiadalari da muvaffaqiyatli qatnashib kelishyapti. 10 yildan buyon esa opa bizning 5-son iqtidorli bolalar maktab-internatida ham tarbiyachi, ham fransuz tili to'garagi rahbari bo'lib faoliyat ko'rsatmoqdalar. Biz ham bu to'garakka a'zomiz. Ustozimiz bizga nazariy bilim beribgina qolmay, tilni puxta egallashimiz uchun turli kechalar, viktorina va tadbirlar uyuştiradilar. Shunday fidysi, bilimdon ustozlarimiz borligi uchun ham internatimiz nafaqat shahrimizda, balki viloyatda ham oldingi o'rinnarda turadi.

Yaqinda Gulnora opa bizni Buxoro shahriga sayohatga olib bordilar. Ko'hna va navqiron Ark binosini

tomosha qilib yurGANimizda bir guruham fransiyalik sayyoqlar bilan uchrashib goldik. Ular bilan fransuz tilida salomlashdik, hol-ahvol so'rashdik. Ustozimizdan eshitgan Ark tarixiga oid ma'lumotlarni fransuz tilida so'zlab berdik. Bu holdan hayratga tushgan mehmonlar, sizlarga fransuz tilini o'rgatgan



ustozlariniga tasanno, deya qarsak chalib yuborishdi. Bizga mayin tabassum bilan boqib turgan Gulnora opamizning ko'zlarida sevinch yoshlari halqalandi.

Mashaqqatli mehnati samarasini ko'rish, shogirdlariga bergen saboqlari uchun maqtov eshitish har kimga ham nasib etavermaydigan baxt-ku, axir! Ustozimizni doimo shunday xursand bo'lib, biz bilan faxrlanib yurishlarini chin dildan istardik.

*Buxoro viloyati, G'ijduvon shahridagi
5-son iqidorli bolalar maktabining
8-«A» sinfi o'quvchisi.*

Shukur QURBON. Katta yoshdagi she'riyat ixlosmandlariga juda yaxshi tanish bu nom. Lekin bolajonlarga-chi?.. Hammasiga emas. Chunki kamtarin va kamsuqum shoirimiz oynaiy-jahon orqali juda kam ko'rinarilar...

Kuni kecha «Istiqlol umidlari» to'garagimiz a'zolari ham mashg'uilotimizga mehmon bo'lib kelgan ajoyib shoirimiz bilan yaqindan tanishib olishdi. Ayniqsa, uning «Shaytanat» filmida yangragan «Shaytonlari chiqdi yo'ldan» qo'shig'ining muallifi ekanligini bilishgach, suhabatimiz yanada qizib ketdi. Bolalik xotiralari, orzulari haqida berilib, zavqlanib so'zlagan shoirni hatto kichik yoshdagi o'g'il-qizlarimiz ham berilib tinglashdi, zerikib qolishmadi. Bunga shoirdagi o'ta samimiylilik, har bir bola qalbiga yo'l topa olishlik fazilatlari sabab bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

- Andijon viloyatining Baliqchi tumanida tug'ilganman, -deya so'zini boshladi shoir. - Asliy degan ashuladan dars beradigan ijodkor ustozimiz bo'lardi. O'zi she'lar yozib, kuy bastalardi. Biz uni qo'shiq qilib kuylardik. Unga astoydil havasim kelardi. Bir kuni qaysidir sinfning adabiyot


qog'ozda qolib ketaverardi.

Bir kuni hovlimizda ochilib turgan kuchuk gulga qarab ilhomim jo'shib bir she'r yozdim. Uning mazmuni quydagicha edi: Kuchukgul aslida kuchuklarning ajdodi bo'lgan ekan. Bolajonlar uni uzbiz, ezg'ilab, ozor beraverishganidan darg'azab bo'lib,

«KUCHUKGUL KUCHUKLARNING AJDODI EKAN...»

darsligini
ochsam, orqasida she'r yozishning qonun-qoidalari yozilgan ekan. O'qib chiqdim-da, men ham bir yozib ko'raychi, deya «ijodga kirishib» ketdim.

«Istiqlol umidlari»



Ko'zimga ko'ringan narsalarning bari she'rlerimga mavzu bo'laverardi. Inidan tushib ketgan jish polaponni mushuk eb qo'ygani bormi, yangi ekilgan nihollarni mol g'ajigani bormi,

vovillaydigan, qopog'on kuchulkarga aylanib qolgan ekan...

Keyinchalik Toshkentga, universitetga o'qishga keldim. Ustoz shoirlarimizdan Abdulla Oripov, Rauf Parpi, Omon Matchon kabilar ijodi bilan tanishib, she'r deb yozib yurgan qoralamalarimni qanday

atashni bilolmay qoldim. Ustozimiz A b d u l l a Oripovning, «Ijodkor odam kuniga o'nlab she'rlarni miyada o'tkazaverishi lozim. Yaxshi, ma'nolilari miyada qolib, vaqt kelganda yana qaynab chiqaveradi»

deya qilgan nasihatlari kechagidek yodimda.

Universitetni endigina tamomlagan yillarim. O'zimni yaxshigina shoir bo'lib qoldim, deb fahmlab yurardim. Bir kuni tahririyatga telefon qilsam, go'shakni olgan odam «men havaskor shoir Mirtemir Tursunov bo'lamon» deya o'zini tanishtirdi. Mirtemirdek odam o'zini havaskor sanab yursayu, men bo'lsam... Yer bilan bitta bo'lgandim o'shanda.

Aziz o'g'il-qizlarim, men bu gaplarni sizga bejiz gapiroyotganim yo'q. Ijod ahli o'ta kamtar, kamsuqum bo'lishi lozimgini ta'kidlamoqchiman. Yana, siz bo'lajak ijod ahli xalqning oldida yuradigan, yomonliklarga qarshi kurashadigan insonlar bo'lishingiz lozim. Mirzo Bedilning bir rivoyatida yozilishicha, qishloqdan chiqqan ikki yigit aylanish uchun shaharga kelishibdi. Ulardan biri adashib gul do'koniga kirib qolibdi va muattar gullarning xushbo'y hididan boshi aylanib, yiqilib, hushidan ketibdi. Do'sti, men bu yigitni taniyman, u juda ko'p iflos joylarda yurgan, dimog'iga qo'lansa hidlar

o'rnashib qolgan. Uni qanday qilib o'ziga keltirishni men bilaman, debdi-da, sigirning tezagini topib kelib, hidlatibdi. Bu bilan nima demoqchiman? Sizning dimog'ingiz ham xushbo'y hidlarga, nigohingiz chiroyli narsalarga ko'nika borsin...

Har safar bir soat davom etadigan mashg'uilotimiz shu kuni ikki yarim soatga cho'zilib ketdi. To'g'risi, vaqtning qanday o'tganini sezmay qolibmi. Uchrashuvimiz mushoiraga ulanib ketdi. Bolajonlar Shukur Qurbondan juda ko'pnarsalarni, ayniqsa, she'r o'qish san'atini o'rganishdi.

Bir og'iz taklifimizni qabul qilib, fursatlarini ayamay uehrashuvga


Bizning to'garak

kelganliklari uchun shoirimizdan behad minnatdor bo'ldik. Vaholanki, bir emas, bir necha bor taklif qilsak-da, «hech fursat topa olmaydigan» bolalar ijodkorlari ham yo'q emas. To'g'ri, kichkinagina bir to'garakda qatnashish ular uchun katta voqeа emasdir. Lekin bunday uchrashuvlar bolajonlar yodida bir umrga muhrlanib qolishini, ulg'aygach, falonchi shoir bilan uchrashganimiz, deya eslab yurishlarini, ularni yanada ilhomlantirishini bilisharmikin ular?!

Feruza JALIOVA,
to'garak rahbari.

UKAMNING TOBI QOCHIB...

Ukamning tobi qo'chib,
Hurmati oshib qoldi.
Tog'alaru xolalar,
Qoshiga shoshib qoldi.



O'yinchog'u sovg'alar,
Keltirishdi bir qancha.
Shirin-shirin ovqatlar,
Yedi jonga tekkuncha.

Erkalashdi betinim,
Tentiradi u ham goh.
Koyishmadi buning-chun,
Mumkinday shunday qilmoq.

Mayli, dedim tuzalib
Olsin, hali ko'ramiz.
Birgalashib hammamiz,
Adabini beramiz.



MUCHALINI QARSHILAGAN O'G'IL QIZLARGA

Muchal yoshiga to'lgan,
O'g'il-qizlar yoqimli.
Chunki ular chiroyli,
Chunki ular aqli.
Kim «ilon»u, kim «quyon»,
Kim «tovug»u, kim «sichqon».
«Parranda-yu darranda»,
Shu bilan birga, inson.
O'n ikki yil- o'n ikki,
Yo'l erur bari ulug'.
Barchasi ham quvonchu,
Shodlik, orzuga to'liq.
Bilim yo'li bittasi,
Bittasi axloq-odob.
Biri hunar o'rganib,
Boshdan kechgan iztirob.
Yana biri Vatanni,
O'zlikni anglash yo'li.
Yutuqlarga boy bo'lsin,
Har kimning muchal yili.

AYIQCHAM

Ayiqchamning ko'zları,
Porlab turadi.
Yonimga kelgin deya,
Chorlab turadi.
Asal bersam yemaydi
O'ychan boqadi.
Qora munchoq ko'zları,
Menga yoqadi.
Yumshoqqina pahmoqvoy,
Polvonim mening.
Sen-la o'tar xushchaqchaq,
Har onim mening.

Nazokat MIRHABIBOVA,
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi
155 - maktabning 5 - sinfi o'quvchisi.

qo'shnimizning bolsasini kuchuk quvlagini bormi, hamma-hammasi haqida yozaverardim. Kuniga 8-10 talab she'rlar yozardim-u, bari



«Esimda, o'quvchilik davrlarimda dars tugashi bilan oq «Tong yulduzi», ilgarigi («Lenin uchquni») gazetasi tahririyatiga qanot bog'lab uchardim. Nega, deysizmi? Sababi ushbu gazetada jamoatchi muxbir edim-da. Kuz lavhalari, og oltin turimi, yerga mehrini berayotgan bobo dehqonlar haqidagi fotosuratlarim, kichik maqolalarim sahifalardan joy egallaganida qalbimni cheksiz hayajon qamrab olardi. Go'yo men nafaqat sinfimiz, balki mактабимиз iftixoriga aylangandim. Bugun tahririyat binosiga qadam qo'yari ekanman, o'sha 50 yil oldingi hayajon yuragimni zabit etdi. Bizni iliq qarshilagan gazeta Bosh muharririga nabiram, oilamizning kichkina shoiri Ziyodullajonni tanishtirayapman-u, xayolimda o'zimning bolatigim gavdalanardi», — deydi Hikmatilla aka ABDULLAYEV.

Bolalik davrlaringiz haqida gapirib bersangiz.

Bolaligim II Jahon urushidan keyingi tikanish davrlariga to'g'ri kelgan. O'sha vaqtida xalq o'z boshidan og'ir kunlarni kechirmoqda edi. Oziq-ovqat tanqisligi, kiyim-bosh yupunligi har bir xonadonda sezilar, ba'zan onamning kuyunibgina «Bir kun urush bo'lgan joydan qirq kun baraka ketadi», degan xalq maqolini bot-bot takorlashini eshitardim. Nazarimda bolalar ham kattalar singari mulohazali bo'lib qolgandek, uzzu-kun o'z yumushlari bilan band bo'lishar, hech kim ko'chada bekor yurmasdi. Nima bo'lganida ham choratrofda yaratish, bunoq etish, mehnat zavqi hukmron. Maktabimizda 90 foizdan ziyod bola faqat «a'lo» va «yaxshi» baholarga o'qirdi desam aslo mubolog'a emas. Darslik kitoblarning tanqisligiyu, o'quv qurollaring etishmasligi ham bilim olishimizga aslo to'sqinlik qilmasdi. Ustozlarimizni qattiq hurmat qillardik. Hatto to'polonchi bolalar ham muallim kelayapti

ting lab, ustozlarimizni adog'siz savollarga ko'mib tashlardik. Qiz bolalar va o'g'il bolalar o'rtaida xuddi aka-singil, opa-ukadek ahillik mujassam. Bitta o'quvchining kamchiligini butun sinftuzatar, uning sha'ni sinfdagi barcha o'quvchilarning sha'ni edi. Maktab partasidagi tarbiya piladagi tarbiya bilan uyg'unlashib, har bir insonni yetuklik darajasi s a r i



yetaklaydi. Ushbu darajaning 100 foiz bo'lishi albatte Siz aziz bolajonlarimning o'z harakatingizga, intilishingizga bog'liq.

Bolalarni gazeta va jurnallarni qiziqib o'qishlari uchun nimalarga e'tibor berish lozim?

— Avvalo hozirgi kundagi ma'naviy

desa, bir pasda mo'min-qobil qobil o'quvchiga aylanishardi. Saboqlarni jon ulog'imiz bilan dunyosi boy o'quvchilarning ko'nglidagini topish, topganda ham ularning ongiga yoqadigan qilib yozish lozim. Samimi, ravon, qiziqarli va yodda qoladigan satrlar o'quvchini doimo o'ziga chorlaydi. Nazarimda ijodkor ijodining mezoni bir

Ba'zi bir noshud tengdoshlarimni yoqganlarimni o'qib, o'ziga tegishli xulosa chiqarishini juda-juda istardim.

— *Qiz bola o'g'il bolaga yaxshi do'st bo'la oladimi?*

— Albatta. Sinfdosim Nigora a'lochi,

yaxshi qiz. U bilan chin do'stmiz. Siroj, Aziz kabi o'rtoqlarim ham yaxshi-yu, baribir Nigora boshqachada. Oqko'ngil, muloyim, barchaga birdek. Biron marotaba bo'lsa-da, o'g'il bolalar bilan janjallahganini ko'rmaganman.

— *Bugun tengdoshlarining nima sovg'a qilasiz etasiz?*

— Ko'p gapirib yubordim shekilli. Yaxshisi ularga ushbu she'rimni armug'on etay.

OLMAXON

Daraxtdan-daraxtga,

Sakraydi hamon.

Yiqilib tushsa u,

Ahvoli yomon.

Chaqqondir hamisha,

Yong'oq zo'r yemish.

Shundanmi Olmaxon,

Eng ziyrak emish.

Ziyodullajon Yunusobod tumanidagi 272 mактабиning 4 «B» sinfida tahlil olarkan. Qo'limdagi daftari to'la she'rlariyu, kichik-kichik hikoyalarni o'qiranman, bobojoni ta'kidlaganidek uning kichik shoirlikidan yetuklik darajasi sari odimlayotganiga guvoh bo'ldik.

Farangiz XO'JAYEVA,

O'zJTU jurnalista fakulteti

3 -bosqich talabasi,

Shohsanam NURMATOVA,

jamoatchi muxbir .



Aziz bolajonlar, mактаб o'quvchilarining eng yirik sport musobaqasi hisoblanmish «Umid nihollari»ning Respublika bosiqchi kelgusi yil Qashqadaryo viloyatida bo'lib o'tishidan xabaringiz bor-a? Shu munosabat bilan barcha maktablarda musobaqaning dastlabki

QASHQADARYODA KO'RISHGUNCHA...

bosqich bahslari, so'ngra tuman miqyosidagi bellashuvlar o'tkazildi. Ularda eng kuchli va chaqqon sportchilar aniqlanib, respublika bosqichiga saralanmoqdalar.

Yaqinda ijodiy safar bilan Qashqadaryo viloyatida bo'lib qaytdik. Viloyatning Qamashi tumanidagi 85 ta mактabning 32 tasida sport zalli bo'lib, 2006-2009-yillar mobaynida yana 15ta ta'lim maskanida davlat hisobidan sport zallari qurilishi rejalashtirilgan ekan. Ko'rsatkichning qanchaga yetishiga e'tibor bering-a. Biroz kamroq, shundaymi?.. Achinarlisi, tumandagi bor-yo'g'i bitta BO'SM va «Yoshlik» ko'ngilli sport jamiyatining ma'muriy binolari yo'q ekan. Sportning qo'l to'pi, voleybol, kurash turlari bo'yicha o'tkazib kelinayotgan viloyat musobaqalarida muvaffaqiyatlari qatnashib, yaxshi natijalar ko'rsatib kelayotgan qamashilik bolalarning afsuski badiiy gimnastika, suzish va tennis bilan shug'ullanishga imkoniyatlari yo'q. Chunki sport bazalari yetarli emas, murabbiylar masalasida ham muammolar yetarli ekan.

BOLALAR SPORTI

Yuqoridaqidek holatga viloyatning Koson tumanida ham duch keldik. Mutasaddilar murabbiylar yo'qligidan nolishdi. Tumandagi BO'SM direktori To'raqul Abdulhayrov kurash zalining ta'mirga muhtojligidan nolidi: «Hisob-kitoblarga ko'ra ta'mir uchun 19 mln. so'm mablag' zarur bo'larkan. Lekin o'sha

rivojlantirish jamg'armasi tomonidan TIP-5 sport majmuasi qurib berilibdi. Endi ushbu majmuada yaqin atrofdagi 6 ta mактab va bitta kasb-hunar kollejining 3500 nafardan ziyod o'quvchi-yoshlari sport bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Agar yo'lingiz tushsa, Muborak tumanidagi doimo bolajonlar bilan gavjum bo'ladigan A.Yo'libarsov nomli sport majmuasiga bir boring. Biz borgan chog'imirda bu yerda boks va kurash mashg'ulotlarining ustidan

Surxondaryo viloyatiga chegaradosh hudud hisoblanib, juda ajoyib ko'rinishga ega. Ya'ni, uning butun hududi tog' va qirlardan iborat. Tumandagi 89 ta mактabning 18 tasida sport zallari mavjud bo'lib, qolganlarida darslarni ochiq havoda yoki mактab stadionida o'tish bilan cheklanilmoqda.

Dehqonobod tumanida ham 2006-2009-yillar Davlat dasturi bo'yicha yana 16 ta sport zali qurilishi ko'zda utilayapti. Tuman o'quvchilariga «Umid nihollari» bosqich musobaqalarida voleybol

MUAMMOLAR HAL BO'LISAGINA...

mablag'ni beruvchi homiy topilmayapti-da», dedi u og'ir xo'rsinib. Darhaqiqat, zalni kuzatganimizda uning 90 yildan beri ta'mirlanmaganiga, kurash gilamlarining eskiligiga guvoh bo'ldik. Bir vaqtlar bu maskanda Zinura Jo'rayeva (dzyudo), Shokir To'rayev, Mahtumquli Mahmudov (kurash) kabi Osiyo va jahon championlari shug'ullanishganiga ishongisi ham kelmaydi odamning.

Shuningdek, kuzatuvlar jarayonida tuman sportida talaygina ijobji o'zgarishlar ham borligiga guvoh bo'ldik. Masalan, «Guvalak» qishlog'idagi bolajonlarning ajoyib bir yangilikdan boshlari osmonda. Ular uchun 216 mln. so'm mablag' hisobiga Respublika Bolalar sportini

chiqdik. Zamonaqiy uslubda qurilgan majmuada bundan tashqari stol tennisi, og'ir atletika uchun yaxshigina sharoitlar bor. Boks murabbiyi D.Muhammadievning qo'l ostida 53 nafar bola uch guruhda mashg'ulot olib bormoqda. Biroq bu yerda ham bir muammo borekan: sportsevar bolalarga kiyim almashtirish va mashg'ulotdan so'ng yuvinish uchun sharoit yo'q ekan. Suv yo'q, xonalar ta'mirga muhtoj ekan.

Viloyatning G'uzor tumani «Baxmal» qishlog'idagi yangi qurilgan TIP-2 sport majmuasi ham shu kunlarda bolalarning eng sevimli manziliga aylangan. Vohadagi Dehqonobod tumani esa

(1-o'rн), shaxmat (2-o'rн), kurash (2-o'rн), basketbol (3-o'rн), futbol (2-o'rн) kabi sport turlaridan yuqori natijalar ko'rsatishgan. Tuman XTB jismoniy tarbiya uslubchisi M.Ergashevning aytishicha, ularni sport jihozlarining yetishmasligi muammosi o'ylantirayotgan ekan...

Istardikki, bu kabi muammolar tezroq barham topsa, respublikamizning chekka-chekka qishloqlarida ham ko'plab sport majmualari barpo etilsa. Shundagina umidli nihollarimizning ertaga zabardast, el koriga yaraydigan «chinorlar» bo'lib yetishishlaridan umid qilsak bo'ldi.

Elmurod EGAMQUOV,
Oydinoy ESONALIYEVA.

TULKIGA DO'ST TUTINSANG

*Yashar ekan o'rmonda,
Ayyor tulkı zormanda.*

*O'rogda, mashoqda yo'q,
Hozir ekan xirmonda.*

*Mehnatga hech hushi yo'q,
Biron kasbi, ishi yo'q.*

*O'rmonga o't ketsa ham,
Na g'ami, tashvishi yo'q.*

*Kimnidir chuv tushirib,
Ayyorligin yashirib.*

*Bilmaganday ishini,
Yurar zimdan pishirib.*

*Kun o'tsa bo'ldi, hisob,
Och qolmas usta gazzob.*

*Pichog'i moy ustida,
Oshnasi bo'ri-qassob.*

*Mo'yna po'stin egnida,
Boplab aldar so'nggida.*

*O'rmon shohi Sherxon ham,
Qolib ketar changida.*

*Yaltoqlanar Arslonga,
Do'st tutinar quyonga.*

*Zarur paytda o'zini,
Tashlar u yon, bu yonga.*

*So'ng kunlarning birida,
Kuzatib ko'z qirida.*

*Qo'ningizga qo'l solar,
Jiddiy turib sirida.*

Xulosa:

*Baliq kabi daryoda,
Bundaylar ko'p dunyoda.*

*Tilyog'lama chin do'st ham,
Emas undan ziyoda.*

*Och qolasan tortinsang,
Betga aytgin botinsang,*

*Teringga somon tiqar,
Tulkiga do'st tutinsang.*

Ravshan ISOQOV,
Toshkent shahri.

sarhadlari yo'lida xizmat qilayotgan ustoz

*- Abdurasul aka Hakimov kirib kelganlarida,
ularning rassomligini qo'lidagi papkadan
darrov payqadim. Rasmlarni bir-bir
ko'rsatayotganlarida, beixtiyor kasb
tarixiga suhabat burildi.*

- Men 40 yildan buyon qalam
tebrataman. Bilasiz, rassomchilikning bir
necha yo'nalishi bor: peyzaj, portret,
natyurmort, abstrakt va boshqalar. Men
shular ichida karikatura chizishni ko'proq ma'qul
ko'raman. Chunki karikatura yordamida hayotda
uchraydigan achchiq haqiqatlarni ifodalash mumkin.
Mavzularni asosan hayotdan olaman.



*Tortishibdi-tortishibdi
«Chupa-chups» siz torta olishmabdi*

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

- E, yig'ishtir maynavozchililingni, shundoq ham xato qilayapman, - dedi shivirlab.

Dakki yegan Ergash oldiga o'girilib o'tirdi. Battar zerika boshladidi. Endi oldidagi partada o'tirgan Donoga tegajoqliq qilmoqchi bo'ldi. Partaning ostidan qo'limi sekin uzatib Dononing sochidan tortqiladi. Qunt bilan diktant yozib o'tirgan Dononing jahli chiqdi, shaddod qiz edi, u orqasiga o'girilib ko'zini olaytirdi.

- Jim o'tirsang-chi! O'zing yozmaganing yozmagan, juda bo'lmasa boshqalarga halaqit berma!

Shovqinni eshitib Ruxsora opa o'rtaga tushdi.

- Nima gap, Dono?!

Dono nafaqat shoddod, balki o'rtoqlariga sadoqatli qiz edi, chaqmachaqarlik qilmadi.

- Hech narsa, - deb qo'ya qoldi.

Yana bir karra dashnom yegan Ergash endi tinchidi, birovg'a xalaqt bermay tek o'tirdi. Sinfoshlarining jerkib tashlashlari alam qildi. O'rtoqlarini o' toq desa o'qituvchisining «qilig'i» hammasidan o'rib tushdi. Ruxsora opa diktant matmini hijjalab o'qir ekan, sinfini aylanar, ba'zi o'quvchilarining tepasida to'xtab qanday yozayotganini ko'zdan kechirar, xatosi bo'lsa ayтиб tuzatardi. Faqat Ergashga mutlaqo e'tibor bermas, u sinda bormi, yo'qmi, sezmagandek tutardi o'zini. Ergash uning atay shunday qilayotganini payqab ko'ngli cho'kdi.

Bora-bora dars boshlangandagi sevinchi butunlay yo'qolib, kayfiyatni xiralashdi.

Shu payt Ruxsora opa doskaga yaqinlashdi, bitta qiyin so'zni yozdi, keyin o'chirdi. Latta quruq ekan, doskadagi so'z yaxshi o'chmadi. Buni ko'rgan Ergash dik

etib o'midan turdi.

- Ustoz, lattani ho'llab kelaymi?- deb so'radi.

- Kerak emas,- dedi Ruxsora opa va piching aralash qo'shib qo'ysi, -sovug suvg'a qo'lingni ursang tag'in gazak olib ketmasin.

Bu achchiq kinoya Ergashning uyoq-buyog'idan o'tib ketdi, birov boshiga gurzi

bilan tushirgandek bukchaydi va dars tugaguncha qaddini rostlolmay bukchayganicha o'tirdi. Yuragida esa g'ashlik, o'kinch paydo bo'ldi. U hech kimga -na o'qituvchisi, na o'rtoqlariga kerak emas, bir begonadek, olaqarg'adek sezardi o'zini. Shu tarqa- yolg'izlatib qo'yib jazolagan edi uni Ruxsora opa!

Bekor o'tiraverib xit bo'lib ketgan Ergashning birdan bir orzusi-tezroq dars tugashi edi. Biroq vaqt aksiga olib imillab o'tar, qirq besh daqiqaga go'yo qirq besh soatga cho'zilib ketgandek edi. Boyaqishning yuragi qisilib «dod» deb yuborishiga oz qoldi.

Nihoyat, orziqib kutgani qo'ng'iroq chalindi, uning ovozi tutqinlikdan ozod etuvchi tantanavor kuydek eshitildi Ergashning qulog'iga. U yengil tortib qaddini rostladi.

Ruxsora opa o'quvchilarining

daftarlari yig'ishtirib chiqib ketdi. Shu zahoti Ergash o'rnidan sakrab turib qichqirdi:

- O'qituvchilarini qanday qilib

laqillatishni akangdan o'rganlaring. Senlar

qiynalib diktant yozish bilan ovora

bo'lganlaringda, men mazza qilib dam olib

o'tirdim. Mana, ko'rib qo'yilaring qirqib

olgan qo'limni.

Ergash shunday deb qo'lini bog'lagan

Farhod MUSAJONOV

dastro'molchani yechib osmonga otdi.

U hammani qoyil qildim, deb o'ylagandi, amalda teskarisi bo'ldi.

- Voy manavi tentakni maqtanishga topgan bahonasini,- dedi qaqajon Dono,-o'zini o'zi jazolab yana keriladi.

- Nima qilib o'zimni o'zim jazolabman? - hayron bo'ldi Ergash.

- Darsda bekor o'tiradigan bo'lsang, nega ovora bo'lib maktabga kelding! - dedi Dono.

- Unga darsning nima keragi bor,-o'rtog'ining yonini oldi Dehqonboy,-voleybol o'ynashda buning oldiga tushadigani yo'q. Ergashdan zo'r sportchi chiqadi, bosh qotirib o'qib nima qiladi.

- Faqat sport bilan shug'ullanadigan, sportdan boshqasini bilmaydiganlardan po'stkalla zo'ravonlar etishib chiqadi,-deb bahsga yakun yasadi Dono.

Oxirgi dars jismoniy tarbiya edi. Dars o'rniga Ergashning sinfi bilan maktab terma jamoasining voleybol o'yini o'tkazildi. Ergash naynov bo'lgani uchun voleybolni haqiqatda yaxshi o'ynardi. Musobaqa keskin va murosasiz janglar ostida o'tdi. Ayniqsa, Ergash o'z mahoratini ko'rsatdi. Har gal yuqori sakrab to'pni urganida o'yinni tomosha qilayotganlar qiyqirib olqishlardi. Shunday paytlarning birida Ergashning ko'zi bexosdan tomoshabinlar orasida turgan Ruxsora opaga tushib qoldi. U g'alati iljayib qarsak chalar ekan, go'yo Ergashning o'yindagi mahorati uchun emas, boyta darsda qilgan ayyorligi uchun qarsak chalayotgan edi. Shu bois qarsagi xuddi tarsakidek Ergashning yuzini lovullatib yondirdi.

(Tamom.)

QALAM HAMROH BO'LGANDA

*Bolajonlar, rassomlarga
e'tibor berganmisiz? Ular
tashqi ko'rinishidan-da ajrab
turishadi. Ko'zlar niyozlari,
nigohlari o'tkir, yana qo'lida
kattakon rasmlar
jamlangan papka...*

*Tahriyatiqimizga
ham uzoq yillar
davomida san'at*

tayyor mavzu. Qo'limga qog'oz-qalam oldim-u, darrovgina avtobusni, to'rxaltadagi kartoshka va piyozlarini


ko'rsatib otaxonning suratini chizdim, qo'ydim. Undan tashqari ko'p kitob, davriy nashrlarni o'qib turaman. Uchragan kini mavzuni qog'ozga tushirishga harakat qila man. Askiyachilar so'z bilan ifodalaydigan achchiq haqiqatni men bo'yoq qalam bilan aks ettiraman. Chizgan rasmlarim juda ko'p gazeta va jurnallarda chiqqan. Ruminiya, Germaniyada va Rossiyada chop etiladigan hajviy jurnallarda rangli karikaturalarim nashr etilgan. «Tong yulduzi», «Gulxan», «G'uncha» kabi bolalar nashrlarida ham suratlarim chop etilgan. Mana, keyingi yillarda shaxsiy ko'rgazmalarim tashkil

Birtalay shogirdlarim ham bor. O'z tanlagan yo'lim o'zimga huzur bag'ishlaydi. Bo'yoq qalam bilan qog'ozim mening hamrohim.

Muharrama PIRMATOVA yozib oldi.



*Nevaramizning
sharofati*



*Yo'iga
qaramaysanmi?*

Chiroyli yozish ham bir san'at. Marjonday terib husnxat bitish barchaning ham qo'lidan kelavermaydi. Tahririyatga kelayotgan maktublar bizning nigohimizdan qolmasligini Siz o'quvchilar yaxshi bilasiz.

Ammo unutmangki, fikringiz

teran, bilimingiz chuqur

bo'lishi bilan birga xatingiz

ham chiroyli bo'lsa, bizni juda quvontiradi.

Dildoraning

bizga yuborgan she'rlari bilan

tanishar ekanmiz, uning

husnxatiga qoyil qoldik.

She'rlari ham bizni befaroq qoldirmadi.

O'qing,

tengdoshingiz orzulariga

qanot tilang.



OTAMNI SOG'INIB...

(Dadam Bobojon Husainov xotirasiga
bag'ishlayman)

Mening qushlar bilan

Uncha ishim yo'q,

O'yinchoqlar bilan kelmas o'ynagim.

Negadir, negadir yuragim becho'g' -

Otajon, men Sizni sog'inib ketdim.

Kimdir ko'ylagini qiladi ko'z-ko'z,

Mening ziraklarim tushadi sinib.

Kiyimlaringizga qarayman beso'z -

Yig'layman, otajon, Sizni sog'inib.

Tunda yostiqlarim tortib qolar nam,

Sizning yo'qligingiz bilinar kunda.

Siz bo'lib ko'rinar - bu hamma odam -

Otajon, men Sizni sog'indim juda.

Dildora JO'RAYEVA,
Namangan shahri Farobi nomidagi
maktabning 7-sinf o'qarchisi



*Tortishibdi-tortishibdi
«Chupa-chups» siz torta olishmabdi*

Mana, kuni kecha ham avtobusda ketayotgan edim. Haydovchi: «Kartoshka, piyozlariningizni ko'rsatib tushing» deb qoldi. Beixtiyor salonda yengil kulgu ko'tarildi. Ana menga



«Yerni boqsang, yer seni boqadi»

Munozara

Oila davrasida televizor ko'rayotgan edik. Bizga tanish serialning kirish qismidagi musiqa boshlandi. «Hozir pecheniyelarning reklamasi boshlanadi»,

REKLAMADA CHEKLOV KERAKMI?

dedi kichkina Husnora. Aytganidek bo'ldi ham. 15-20 turdag'i pecheniyelarni «ko'z-ko'z»lashdi. Menimcha, ularning nomlanishidagina farq bor xolos. To'g'ri, reklamalar Ommaviy axborot vositalarining daromad manbai hisoblanadi. Lekin asalning ham ozi shirin-da. Nahotki me'yor tushunchasi reklamalar uchun daxldor bo'lmasa?! Son-sanoqsiz, bir-biriga o'xshash reklamalarni takrorlayverishning ham chegarasi bordir, axir!?

Dilfuza XOLMATOVA,
O'zMU jurnalistika fakultetining
I-bosqich talabasi.



dedi kichkina Husnora. Aytganidek bo'ldi ham. 15-20 turdag'i pecheniyelarni «ko'z-ko'z»lashdi. Menimcha, ularning nomlanishidagina farq bor xolos. To'g'ri, reklamalar Ommaviy axborot vositalarining daromad manbai hisoblanadi. Lekin asalning ham ozi shirin-da. Nahotki me'yor tushunchasi reklamalar uchun daxldor bo'lmasa?! Son-sanoqsiz, bir-biriga o'xshash reklamalarni takrorlayverishning ham chegarasi bordir, axir!?

Dilfuza XOLMATOVA,
O'zMU jurnalistika fakultetining
I-bosqich talabasi.

BIRINCHISIGA KARAM SHO'RVA

Aziz dugonajonlar! Siz albatta turli-tuman, mazali taomlar tayyorlab, uyingizdagilarni xursand qilmoqchisiz.

Albatta qo'li shirin pazanda nomini olish kimga yoqmaydi deysiz. Bu borada men sizga jon deb Ochil dasturxon ko'maklashaman:

2 ta piyoz, 400 gr. go'sht, 1 ta qizil sabzi, 2 dona kartoshka, 2 dona qizil lavlagi, karamni 4 dan bir qismi.

Piyoz va go'shtni pista yog'ida ozgina qovurib oling. Go'shtningiz qattiq qovurilmasin. Ketidan qizil sabzini dumaloq shaklda kesib, qozoningizga soling. Qizil lavlagini archib, butunligicha solib, ketidan me'yorida suv soling. Suvingiz qaynab chiqqach, tuz va «lavr yaprog'i» ham solish kerak. Qizil lavlagi qozonda 40 daqiqa qaynaydi. Shu vaqt ichida kartoshkani 4 bo'lakka bo'ling. Kartoshkangiz pishgach, qizil lavlagini qozondan oling va qirg'ichdan chiqarib, karam bilan qozoningizga soling. 5 daqiqlidan so'ng o'chirib, qopqoq'in yoping. Ovqatni suzganingizda 1 qoshiq smetana solib, dasturxonga torting.



Ko'k karam sho'rva ham qizil sho'rva singari tayyorlanadi. Faqat qizil lavlagini o'rniga qizil bolgar qalampiri va oddiy karam solinadi, oxirida ko'katdan ko'proq to'g'rab, qozonga solib, qopqoqni yoping va tagini o'chiring. Smetana qo'shish esingizdan chiqmasin.

Eslatma: «Karam sho'rva»ga ovqatni qizartiradigan, ya'ni pomidor yoki qovurma achichuk solmang.

Yoqimli ishtaha!
Nargiza ABDULLAYEVA
tayyorladi.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022- raqam bilan
2003 yil 11 dekabrdra
ro'yxatdan o'tgan.


Noshir
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 40132
Buyurtma N: J 1280

Dizayner va sahifalovchi:
Otobek
ESHCHANOV.
Navbatchi:
Ma'mura
MADRAHIMOVA.

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38
144-38-10
144-63-08
Tel./faks:
(99871) 144-24-45



3 xonali: ila, yov, bet, ko'l, ana, ari, ato, ara.

4 xonali: navo, xafa, vaqt, davo, nala, o'quv, va'da, adib, taxt, ziyo, ayol, obid, kata, satr, soat, arab, qora, atir, iroq, sira.

5 xonali: qalam, kimyo, atala, tovar, baxil, laylo, buyuk, kubro.

Ushbu krossvordda kataklar soniga qarab, berilgan so'zlarni joylashtirib chiqing.

1. Daraxtlarning daraxti,
Samoga yetmoq ahdi.

2. Juda uchqur bilsangiz,
U bilan do'st bo'lsangiz.

3. Ardoqlanadi boshda,
Kattayu kichik yoshda.

4. Qog'ozga do'st bo'ladi,
Uni hamma biladi.

5. Shirin-shakar eti bor,
Yeganlarga shifo yor.

6. Bulutning ko'z yoshidir,
Mo'l hosilning boshidir.

7. Chorlayverar qadamlarni,
Unga hamroh odamlarni.

8. Shiftidagi darvoz,
Hunari ko'p soz.

9. Hayvonlarning podshohi,
Tunda ham kezar gohi.


Tuzuvchi:
Xandona SAIDAHMEDOVA,

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 17-maktabning o'quvchisi.



Tuzuvchi: Dilafro'z
BAHRIDDINOVA,

Navoiy shahri, 11-maktabning
ixtisoslashgan «Bank» sing o'quvchisi.



TOPQIRLAR

